

IZZAT SULTON: HAYOTI, IJODI VA TANQIDCHILIK FAOLIYATI

Azimova Mubinabonu

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola XX asr o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi rivojida muhim o‘rin tutgan Izzat Sulton (1910–2001)ning hayoti, ijodi va ilmiy faoliyatini keng qamrovli tahlil qiladi. Maqolada olimning o‘zbek mumtoz adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, sahna madaniyati va kino san’ati sohasidagi izlanishlari, shuningdek, zamonaviy adabiy jarayonni o‘rganishdagi yondashuvlari batafsil yoritilgan. Izzat Sultonning «Adabiyot nazariyasi» darsligi, Navoiyshunoslik bo‘yicha tadqiqotlari va dramaturgik asarlari orqali o‘zbek adabiyotida tanqidiy tafakkur va ilmiy tadqiqot metodlarini rivojlantirishdagi xizmatlari ko‘rsatildi. Shuningdek, maqolada Izzat Sultonning Abdulla Qodiriy ijodiga nisbatan haqqoniy va ilmiy bahosi, jadidizm va sotsrealizm masalalariga yondashuvi tahlil qilinadi. Annotatsiyada uning adabiyotshunoslikdagi merosi, olim sifatidagi ilmiy izlanishlari va jamoat faoliyati, shuningdek, zamon adabiyotiga ta’siri alohida ta’kidlangan.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the life, literary work, and scholarly activity of Izzat Sulton (1910–2001), a prominent figure in 20th-century Uzbek literary studies and criticism. It highlights his research on classical Uzbek literature, oral folk traditions, stage culture, and cinema, as well as his approach to contemporary literary processes. The study emphasizes Sulton’s contributions through his textbook *Adabiyot nazariyasi*, his research in Navoi studies, and his dramaturgical works, showcasing his role in developing critical thinking and scholarly methods in Uzbek literary criticism. Furthermore, the article examines his objective and scientific evaluation of Abdulla Qodiriy’s works, his perspectives on Jadidism and Socialist Realism, and the lasting impact of his scholarly and public activities on Uzbek literature.

Аннотация: В данной статье проводится всесторонний анализ жизни, литературного творчества и научной деятельности Иззата Султона (1910–2001), выдающегося деятеля узбекской литературоведения и критики XX века. Статья

освещает его исследования классической узбекской литературы, устного народного творчества, сценической культуры и кино, а также подход к современным литературным процессам. Особое внимание уделяется вкладу Султона через учебник *Adabiyot nazariyasi*, исследования по навоиеведению и драматургические работы, демонстрируя его роль в развитии критического мышления и научных методов в узбекской литературной критике. Также рассматривается объективная и научная оценка творчества Абдуллы Кодирия, взгляды на джадидизм и социалистический реализм, а также долговременное влияние его научной и общественной деятельности на узбекскую литературу.

Kalit so‘zlar: Izzat Sulton, adabiyot nazariyasi, realizm, tanqidchilik, Navoiy, Qodiriy, ilmiy maktab.

Kirish

XX asr o‘zbek adabiyoti va madaniyatida o‘zining ilmiy va badiiy merosi bilan ulkan iz qoldirgan shaxslarning biri – Izzat Sulton (Izzat Otaxonovich Sultonov, 1910–2001)dir. U nafaqat yetuk adabiyotshunos va tanqidchi, balki dramaturg, kinossenariychi, professor va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi sifatida mashhur bo‘lgan. Izzat Sulton o‘zining ilmiy izlanishlari, asarlarining yuqori badiiy va ilmiy qiymati bilan o‘zbek adabiy tanqidchiligi va adabiyotshunosligi rivojiga katta hissa qo‘shgan. Shu bilan birga, u mumtoz adabiyotimiz, xalq og‘zaki ijodi, XX asr badiiy so‘z madaniyati va jahon adabiyotining chuqur bilimdoni sifatida tanilgan. Ustoz Izzat Sultonning ijodiy merosi va ilmiy izlanishlari nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlod adabiyotshunoslari uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Izzat Sultonning hayoti va ilmiy faoliyati

Izzat Sultonov 1910-yilda Qirg‘izistonning O‘sh shahrida tug‘ilgan. U yoshligidan bilimga chanqoq va ijodiy qobiliyati bilan ajralib turgan. Avval musiqa maktabida tahsil olgan, keyinchalik bilim yurtida o‘qigan. 1929-yilda Yangiyo‘l tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida o‘qituvchi sifatida faoliyat boshladi. Shu davrda u gazetalarda mas’ul kotib va mudirlik lavozimlarida ham ishladi. 1930-yilda SAGU qoshidagi ijtimoiy fanlar fakultetiga o‘qishga kirdi va ayni paytda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi aspiranturasida tahsil oldi (1934–1937).

1938-yilda O‘zbekiston Fanlar komiteti Til va adabiyot instituti direktorining o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi, 1939-yilda esa institutdagi Alisher Navoiy bo‘limi mudiri bo‘ldi. Urush yillari gazeta va Toshkent kinostudiyasida xizmat qilgan, 1943-yilda kinostudiya direktori etib tayinlangan. 1945-yilda O‘zbekiston Ministrlar Soveti raisining o‘rinbosari lavozimiga ko‘tarildi. 1948-yilda Til va adabiyot instituti direktori bo‘ldi va 1950-yilda doktorantura tahsilini davom ettirdi. Shu davrda u Moskva davlat universitetida buyuk qozoq adibi Muxtor Avezov bilan bir kafedrada ishladi va talabalarga ma‘ruzalar o‘qidi. Toshkentga qaytgach, Til va adabiyot institutida o‘zbek adabiyoti sho‘basiga rahbarlik qildi (1955).

Uning ilmiy faoliyati keng ko‘lamli bo‘lib, asosan sahna madaniyati, kino san’ati va adabiyot ilmi yo‘nalishlarini qamrab olgan. Izzat Sultonning ilmiy faoliyati ko‘plab orden va medallar bilan taqdirlangan.

Izzat Sulton ijodiy faoliyati 1930-yillarda boshlandi. Uning dastlabki maqolalari musiqa, roman janri va dramaturgiya masalalariga bag‘ishlangan. Shu davrda yozilgan «Adabiyotda obrazni yuzaga keltirish yo‘llari», «Badiiy adabiyotda til» va boshqa maqolalari keyinchalik «Adabiyot nazariyasi» darsligining tayyorlanishiga zamin yaratdi.

1940-yilda e‘lon qilingan «O‘zbek tanqidchiligi haqida» maqolasi uning ilmiy-nazariy fikrlarining chuqurligini ko‘rsatadi. Izzat Sulton uch yo‘nalishda izlanish olib bordi: zamonaviy adabiyot muammolari, mumtoz adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasi. U Alisher Navoiy siymosi va ijodini ilmiy jihatdan tadqiq qildi. 1938–1941-yillarda yozilgan «Mir Alisher Navoiy», «Rustaveli va Navoiy», «Navoiy tadqiqotchilari» kabi maqolalari olimning Navoiyshunoslikdagi tadqiqot yo‘nalishining boshlang‘ich nuqtasi bo‘ldi.

Izzat Sultonning navoiyshunoslikka qo‘shgan muhim hissasi «Mezonul-avzon va uning tanqidiy teksti» nomli ishi bo‘lib, shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1949). «Navoiyning qalb daftari» asari esa nafaqat O‘zbekiston, balki jahon navoiyshunosligida katta hissa qo‘shgan ilmiy tadqiqot sifatida tan olingan.

Yetuk adabiyotshunos va tanqidchi

Izzat Sulton «Adabiyot nazariyasi» (1939) asari bilan o‘zbek madaniyat va adabiy hayotida muhim voqea yaratdi. Bu darslik nafaqat o‘rta maktablar, balki oliy o‘quv

yurtlarida asosiy manba sifatida ishlatildi. U adabiyotshunoslikda A. Sa'diy va Fitratdan keyin adabiyot nazariyasi bo'yicha darslik yaratgan uchinchi ustoz sifatida tanilgan.

Sulton sotsrealizm haqidagi tadqiqotlarida faqat mafkura yoki g'oya nuqtai nazaridan emas, balki badiiy mahorat va realizm xossalari jihatidan ham muhim ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari surdi. 1963-yilda yozilgan «Realizmning zamonaviyligi» maqolasi o'zbek adabiyotida realizmning chuqurlashuv jarayonlarini yoritdi.

Izzat Sulton o'zbek adabiy tanqidchiligining rivojlanishida yangi yondashuvni ilgari surdi. U adabiy tanqidni badiiy asar yaratish jarayonining ajralmas qismi deb bilgan va tanqidchining yozuvchi bilan hamkorligi muhimligini ta'kidlagan. U maqolalari va tadqiqotlarida adabiyotdagi zamonaviy muammolarni, janr va uslub masalalarini teran o'rgangan.

Abdulla Qodiriy ijodi tanqidchi nigohida

Izzat Sulton A. Qodiriy ijodini haqqoniy va ilmiy baholashga harakat qilgan. 1956-yilda «Yozuvchi Abdulla Qodiriy haqida» maqolasi orqali u qatag'onga uchragan adibning ijodini tiklashga xizmat qilgan. Bu maqolada Sulton A. Qodiriy ijodini realistik asosda tahlil qilib, uning sotsialistik realizmga qanchalik mos kelishini o'rganadi. 1962-yilda yozilgan «Abdulla Qodiriy» ilmiy tadqiqoti oldingi qarashlardan kengroq va chuqurroq baho beradi. Sulton jadidizm ta'sirini ochiq tan olgan holda adib ijodini zamon sharoitiga mos talqin qilgan.

Xulosa

Izzat Sulton adabiy tanqidchilikda ham o'zining ilmiy-nazariy yondashuvini namoyon qilgan. U adabiy tanqidni badiiy ijod jarayonining ajralmas qismi deb bilgan, tanqidchining yozuvchi bilan hamkorligi va adabiy jarayonni obyektiv tahlil qilishdagi mas'uliyatini doim ta'kidlagan. U A. Qodiriy ijodini ilmiy va haqqoniy baholash orqali, tanqidchilikda jur'at va odillik namunasi ko'rsatgan. Shu bilan birga, u jadidizm va sotsrealizm masalalarida tanqidiy mulohazalar bildirgan, ularning adabiyot va jamiyatga ta'sirini chuqur o'rgangan.

Ustozning «Adabiyot nazariyasi» darsligi, dramaturgik asarlari va navoiyshunoslik bo'yicha tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligi tarixida muhim burilish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Uning ilmiy izlanishlari, asarlar va darsliklari nafaqat o'z davrida, balki

mustaqillik davrida ham dolzarb ahamiyatga ega. U adabiyotshunoslikda, dramaturgiya va kino san'atida yetuk mutaxassis sifatida zamonining eng ulkan olimlari qatoriga kiradi. Izzat Sulton ijodi va ilmiy merosi kelajak avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik.-T.: «Fan», 1978-1979.
2. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi «O'zbekiston», 1993.
3. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-T.: «Oqituvchi», 2002.
4. Rahimjonov N. Badiiy asar biografiyasi. T.: 2008.
5. Do'stqoraev B. Ozbek adabiy tanqidchiligi tarixi. T., 1998.
6. Izzat Sulton. Hayot, adabiyot, mahorat. T.: 2001.
7. Nazarov B. Ozbek adabiy tanqidchiligi. T., 1979.
8. Rasulov A. Xvdoyberganov N. Ozbek adabiy tanqidchiligi tarixi. T., 1989.
9. Fitrat. Adabiyot qoidalari.-T.: «O'qituvchi», 1995.